

Yuridik shaxslarda ishlovchilarning oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2021- yil yanvar-sentabr (dastlabki ma'lumot)

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida yuridik shaxs maqomiga ega boʻlgan korxona va tashkilotlarda (qishloq xoʻjaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) ishlovchilarning oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 623,5** ming soʻmni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **11,5 %** ga oshdi.

Oʻrtacha oylik ish haqini hisoblash uchun qabul qilingan xodimlar soni **4 903** ta korxona va tashkilotlarda **202,7** ming kishini tashkil qildi.

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan asosiy mehnat

koʻrsatkichlarining oʻzgarishi, foizda

(qishloq xoʻjaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



**Korxona va tashkilotlar
soni**

101,3%



Xodimlar soni

102,2%



**Jismoniy shaxslarga
hisoblangan mehnatga haq
toʻlash tarzidagi daromadlar**

113,9%



**Oʻrtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**

111,5%

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy mehnat ko'rsatkichlarining o'zgarishi
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)
yanvar-sentabr oylari


№	Iqtisodiy faoliyat turlari	O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan va tashkilotda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni, ming kishi			Jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar - jami, mlrd so'm		
		2020- yil	2021- yil	o'sish sur'ati, %	2020- yil	2021- yil	o'sish sur'ati, %
1	Sanoat	35,9	39,4	109,8	1212,1	1261,6	104,1
2	Qurilish	0,9	0,9	100,0	25,3	14,9	58,9
3	Savdo	2,9	2,4	82,8	54,0	47,4	87,8
4	Tashish va saqlash	2,4	2,4	100,0	33,5	36,0	107,5
5	Axborot va aloqa	0,9	0,9	100,0	19,0	23,3	122,5
6	Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	3,9	3,9	100,0	180,7	233,3	129,1
7	Ta'lim sohasi	85,9	90,2	105,0	1477,3	1793,3	121,4
8	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasi	38,7	37,3	96,4	609,1	721,1	118,4
9	Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasi	26,9	25,3	94,1	528,5	582,6	110,2
Viloyat bo'yicha jami		198,4	202,7	102,2	4139,5	4713,5	113,9

Joriy yilning yanvar-sentabr davrida o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan va tashkilotda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni ko'rsatkichi bo'yicha eng katta o'sish **sanoat** sohasida (**9,8** % ga o'sish) va eng kam pasayish **savdo** sohasida (**17,2** % ga kamayish) kuzatildi.

Jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar ko'rsatkichi bo'yicha esa eng katta o'sish **axborot va aloqa** sohasida (**22,5 %** ga o'sish) va eng kam pasayish **qurilish** sohasida (**41,1 %** ga kamayish) kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy mehnat ko'rsatkichlarining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, foizda

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Hududlar kesimida asosiy mehnat ko'rsatkichlari
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)
yanvar-sentabr oylari

№	Hududlar nomi	O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan va tashkilotda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni, ming kishi			Jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar - jami, mlrd so'm		
		2020- yil	2021- yil	o'sish sur'ati, %	2020- yil	2021- yil	o'sish sur'ati, %
	Andijon viloyati	198,3	202,7	102,2	4139,5	4727,6	114,2
	<i>shaharlar:</i>						
1	Andijon sh.	61,2	60,9	99,5	1523,0	1772,9	116,4
2	Xonobod sh.	4,7	4,6	97,9	104,6	108,5	103,7
	<i>tumanlar:</i>						
3	Oltinko'l	9,3	7,9	84,9	122,8	138,5	112,8
4	Andijon	13,1	13,5	103,1	224,6	248,8	110,8
5	Baliqchi	9,9	9,5	96,0	142,8	153,6	107,6
6	Bo'ston	4,7	5,0	106,4	69,6	81,8	117,5
7	Buloqboshi	6,3	6,6	104,8	91,7	108,5	118,3
8	Jalaquduq	7,5	8,1	108,0	126,9	147,7	116,4
9	Izboskan	9,7	9,3	95,9	149,5	180,2	120,5
10	Ulug'nor	4,1	4,2	102,4	62,7	70,3	112,1
11	Qo'rg'ontepa	9,9	12,2	123,2	152,0	219,3	144,3
12	Asaka	22,8	23,6	103,5	790,2	809,8	102,5
13	Marhamat	7,9	8,4	106,3	121,7	137,9	113,3
14	Shaxrixon	12,4	11,5	92,7	199,0	220	110,6
15	Paxtaobod	8,1	9,0	111,1	134,7	177	131,4
16	Xo'jaobod	6,7	8,4	125,4	123,7	152,8	123,5


**O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming so'm**
(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)




Sanoat




Qurilish




Savdo





Tashish va saqlash




Axborot va aloqa




**Bank, sug'urta, lizing,
kredit va vositachilik**




Ta'lim



**Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish**



**Boshqa ijtimoiy
xizmatlar sohasidagi**



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlili:

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



□ **Sanoat** sohasidagi **80** ta korxona va tashkilotlarda **39,4** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **19,4** %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar **1 261,6** mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi **26,8** %) tashkil etdi. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi **3 558,8** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **5,2** % ga pasaygani kuzatildi.

□ **Qurilish** faoliyat turidagi **15** ta korxonada **0,9** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **0,4** %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar **14,9** mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi **0,3** %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi **1 955,5** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **39,1** % ga pasaygani kuzatildi.



□ **Savdo** faoliyat turidagi **20** ta korxonada **2,4** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **1,2** %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar **47,4** mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi **1,0** %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi **2 208,2** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **6,9** % ga o'sdi.

□ **Tashish va saqlash** faoliyat turidagi **13** ta korxonada **2,4** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **1,2** %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar **35,9** mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi **0,8** %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan



oʻrtacha oylik nominal ish haqi **1 663,0** ming soʻmni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **6,7 %** ga oʻsdi.



□ **Axborot va aloqa** sohasidagi **5** ta korxonada **0,9** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **0,5 %**) xodimlar oʻz faoliyatini yuritgan boʻlib, ularga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar **23,3** mlrd soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi **0,5 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi **2 759,4** ming soʻmni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **21,9 %** ga oʻsdi.

□ **Bank, sugʻurta, lizing, kredit va vositachilik** iqtisodiy faoliyat turidagi **25** ta korxonada **3,9** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **1,9 %**) xodimlar oʻz faoliyatini yuritgan boʻlib, ularga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar **233,3** mlrd soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi **5,0 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi **6 725,5** ming soʻmni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **31,3 %** ga oʻsdi.



□ **Taʼlim sohasi** iqtisodiy faoliyat turidagi **2 109** ta korxonada **90,2** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **44,5 %**) xodimlar oʻz faoliyatini yuritgan boʻlib, ularga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar **1793,3** mlrd soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi **37,9 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi **2 208,5** ming soʻmni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **15,5%** ga oʻsdi.

□ **Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasi** dagi **80** ta korxonada **37,3** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **18,4 %**) xodimlar oʻz faoliyatini yuritgan boʻlib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **721,1** mlrd soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi **15,3 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal



ish haqi **2 145,6** ming soʻmni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **22,3 %** ga oʻsdi.




□ **Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasidagi 2 556 ta** korxonada **25,3** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **12,5 %**) xodimlar oʻz faoliyatini yuritgan boʻlib, ularga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar **582,6** mlrd. soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi **12,4 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi **2 557,9** ming soʻmni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **17,0 %** ga oʻsdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng yuqori oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori bank, sugʻurta, lizing, kredit va vositachilik faoliyat turida kuzatildi va **6 725,5** ming soʻmni tashkil etdi. Shuningdek yuqori koʻrsatkichlar **sanoat** faoliyat turida (**3 558,8** ming soʻm) va **axborot va aloqa** faoliyat turida (**2 759,4** ming soʻm) kuzatildi. Eng past koʻrsatkich esa **tashish va saqlash** faoliyat turida kuzatildi va **1 663,0** ming soʻmni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimidagi oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


(2021- yil yanvar - sentabr, qishloq xoʻjaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming soʻmda)



Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bolsak, oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Asaka tumani (3 859,3 ming soʻm), Andijon shahrida (3 306,9 ming soʻm) kuzatildi. Aksincha, Boʻston va Baliqchi tumanlarida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi boshqa hududlarga nisbatan past miqdorda boʻldi.

Oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʼati

(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xoʻjaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-sentabr oylarida; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz,
ming. so'mda)

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	2353,9	2623,5	111,5
shaharlar			
Andijon sh.	2843,3	3306,9	116,3
Xonobod sh.	2483,0	2654,6	106,9
tumanlar			
Oltinko'l	1463,7	1951,7	133,3
Andijon	1916,6	2063,5	107,7
Baliqchi	1605,6	1798,2	112,0
Bo'ston	1655,0	1806,9	109,2
Buloqboshi	1639,9	1884,7	114,9
Jalaquduq	1873,7	2023,4	108,0
Izboskan	1720,7	2153,4	125,1
Ulug'nor	1699,8	1871,3	110,1
Qo'rg'ontepa	1724,4	2008,5	116,5
Asaka	3896,4	3859,3	99,0
Marhamat	1743,0	1818,5	104,3
Shaxrixon	1779,1	2121,7	119,3
Paxtaobod	1855,0	2198,4	118,5
Xo'jaobod	2063,9	2030,6	98,4

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat ko'rsatkichiga nisbatan o'sish sur'ati

(2021- yil yanvar-sentabr oylarida, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining viloyat ko'rsatkichiga nisbatan yuqori darajasi Asaka tumani (**3859,3** ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **47,1** % ga yuqori), Andijon shahri (**3306,9** ming so'm, **26,0** % ga yuqori) da kuzatilgan bo'lsa, Baliqchi tumani (**1798,2** ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **31,5** % ga past), va Bo'ston tumani (**1806,9** ming so'm, viloyat ko'rsatkichidan **31,1** % ga past) da kuzatildi.

Ma'lumot uchun:

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021-yil sentabr oyida **822 000** so'mni tashkil etgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021-yil 17-avgustdagi PF 6279-sonli farmon) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

